

Sir fosh bo'ladi



15:00 / 24.10.2021 1892

Ikkinchi kuni Muso o'sha Bani Isroillikni yana boshqa qibtiy bilan urushib, janjallashib turganini ko'rdi. Bani Isroillik uyalmasdan yana uni yordamga chaqirdi. Muso unga dedi:

- Sen yaramas odam ekansan. Hadeb hamma bilan yoqa bo'g'ishaverasanmi? Yana tag'in baqirib, meni yordamga chaqirasan?! Nima, hamisha yoningni olib, yordam berishim kerakmi? «Albatta sen ochiq adashgan (kimsa)dirsan». Muso qibtiyga biroz odob berib qo'yish niyatida ular tomon yurdi. Lekin Musoning malomatini eshitgan, g'azablanganini ko'rgan qibtiy «Muso meni urgani kelayapti» deb o'yladi. U o'zining kechagi qibtiy holiga tushib, hal qiluvchi zarba yeyishidan qo'rqdi.

«Bas (Bani isroillik kishi) dedi: - Ey Muso ! Kecha bir jonni o'ldirganing kabi meni ham o'ldirishni xohlayapsanmi? Aniqki, sen yer (yuzi)da zo'ravon bo'lmoqni istaysan. Va isloh qilguvchilardan bo'lishni xohlamaysan».

Bu so'zlarni eshitgan qibtiy qotilning Muso ekanligini bilib qoldi va Fir'avn mirshablariga Muso qotil ekanini xabar yetkazish uchun yugurdi.

Xabar Fir'avnga yetib kelgach u qattiq darg'azab bo'ldi.

- U saroyda sut emib, katta bo'lgan haligi boqimanda bolami?! Muso Alloh irodasi bilan Fir'avn va uning jallodlari qo'lidan omon qoldi. Chunki u Qibtiyni qasddan o'ldirmagan edi. U faqat bir zarba urganida hal qiluvchi zarba bo'lgan edi.

Lekin Fir'avn jallodlari omon qo'ymas va bu uzrni qabul qilmas edi.

Alloh taolo Fir'avn mulkini Muso qo'li bilan yo'qotishni, Bani Isroilni uning vositasida jabr-zulmdan xalos qilishni iroda etgan edi.

Alloh bitgan taqdirga ko'ra Muso insonlarni o'zlari kabi ojiz qullarga sig'inishdan yolg'iz, qudratli Allohga ibodat etishga olib chiqishi lozim edi. Agar zolim jallodlar qo'li yetib kelsa unda ahvol qanday bo'ladi!

Fir'avn a'yonlari o'zaro kengashib, Musoni qatl qilishga qaror qildilar.

Bas sen bu (shahardan) chiqib ketgin. Albatta men senga xolis bo'lgan kishilardandirman», dedi. Bas qo'rquvga tushib (ortidan yetib kelib qolishlariga) ko'z tutgan holda u yerdan chiqib, dedi: «Parvardigorim, O'zing menga bu zolim qavmidan najot bergin».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad